



## Subjects of parliamentary control

Niyozjon SULTANOVA<sup>1</sup>

Karakalpak State University

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received March 2024  
Received in revised form  
15 April 2024  
Accepted 25 April 2023  
Available online  
25 May 2024

**Keywords:**

Parliamentary control,  
special commission,  
subjects of parliamentary  
control,  
objects of parliamentary  
control,  
results of parliamentary  
control.

## Parlament nazorati subyektlari

**Kalit so'zlar:**

Parlament nazorati,  
maxsus komissiya,  
parlament nazorati  
subyektlari,  
parlament nazorati  
obyektlari,  
parlament nazorati  
natijalari.

## Субъекты парламентского контроля

**Ключевые слова:**

Парламентский контроль,  
специальная комиссия,  
субъекты парламентского  
контроля,

### ABSTRACT

This article provides information about the subjects of parliamentary control, their obligations, as well as the obligations of the officials of the state bodies when the subjects of parliamentary control perform parliamentary control.

2181-1415/© 2023 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss4/S-pp274-277>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada parlament nazorati subyektlari, ularning majburiyatlari, shuningdek parlament nazorati subyektlari parlament nazoratini amalga oshirayotganda davlat organlari mansabdor shaxslarining majburiyatlari xususida ma'lumot berilgan.

### АННОТАЦИЯ

В данной статье представлена информация о субъектах парламентского контроля, их обязанностях, а также обязанностях должностных лиц государственных органов при осуществлении субъектами парламентского контроля.

<sup>1</sup> Master's degree student, Faculty of Law, Karakalpak State University.

объекты парламентского  
контроля,  
результаты  
парламентского контроля.

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida parlamentning, xususan parlament nazoratining davlat va jamiyat hayotidagi o'рни va ahamiyati juda muhim. Shu boisdan, xorijiy tajriba va xalqaro standartlar asosida parlament nazoratining tashkiliy-huquqiy asoslari yanada takomillashtirib borilmoqda.

Konstitutsiyamizning 103-moddasiga muvofiq, mamlakatning xavfsizligi, barqaror rivojlanishi asoslariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, inson huquqlari va erkinliklariga, jamiyat va davlat manfaatlariga tahdid soladigan faktlar va voqealarni o'rganish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma qarori bilan parlament tekshiruvini o'tkazilishi mumkin ekanligi belgilangan bo'lib, parlament tekshiruvini o'tkazish uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari va Senati a'zolari orasidan tenglik asosida maxsus komissiya tuzilib, u o'z faoliyatini qonunga muvofiq amalga oshirishi qayd etilgan.

Maxsus komissiya parlament tekshiruvini o'tkazishda quyidagilarga haqli:

– davlat organlarining, xo'jalik boshqaruvi organlarining vakillarini, mutaxassislarni, ekspertlarni va olimlarni komissiya ishiga jalb etishga;

– davlat organlaridan, xo'jalik boshqaruvi organlaridan, boshqa tashkilotlardan, shuningdek fuqarolardan zarur ma'lumotlarni so'rab olishga;

– davlat organlarining, xo'jalik boshqaruvi organlarining, boshqa tashkilotlarning mansabdor shaxslarini, shuningdek fuqarolarni tushuntirishlar berish uchun taklif qilishga.

Maxsus komissiya Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma qaroriga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. Maxsus komissiya bajarilgan ishlar to'g'risida Qonunchilik palatasi va Senat tomonidan belgilangan muddatda ularni xabardor qiladi.

Parlament nazorati subyektlari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi ;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati;

Qonunchilik palatasining, Senatning qo'mitalari, komissiyalari;

Qonunchilik palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari ;

Qonunchilik palatasi deputatlari;

Senat a'zolari;

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman).

Davlat organlarining hamda ular mansabdor shaxslarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining va ular organlarining qarorlarini, davlat dasturlarini ijro etish, shuningdek o'z zimmlariga yuklatilgan vazifalar hamda funksiyalarni amalga oshirish bo'yicha faoliyati parlament nazorati obyektidir.

“Parlament nazorati to'g'risida”gi qonunga ko'ra, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarning, surishtiruv va tergov organlarining, sudlarning ish yurituvdagi muayyan ishlar va materiallarni, shuningdek ijro ishi yuritish hamda notarial ish yuritishning muayyan materiallarini ko'rib chiqish bilan bog'liq faoliyat parlament nazoratining obyektini bo'lishi mumkin emas.

“Parlament nazorati to‘g‘risida”gi Qonunning 23-moddasiga muvofiq parlament nazoratini amalga oshirishda parlament nazorati subyektlari:

- davlat organlarini hamda ularning mansabdor shaxslarini parlament nazoratini o‘tkazish bilan bog‘liq zarur hujjatlar bilan tanishtirishi;

- davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning va ular mansabdor shaxslarining o‘z vakolatlari doirasida amalga oshirayotgan faoliyatiga aralashmasligi;

- davlat organlarining, boshqa tashkilotlarning faoliyat ko‘rsatishi uchun to‘siqlarni yuzaga keltirmasligi;

- davlat sirlarini yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma‘lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etishi shart. shuningdek, parlament nazorati subyektlarining zimmasida qonunga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

Parlament nazorati subyektlari parlament nazoratini amalga oshirayotganda davlat organlarining mansabdor shaxslari:

- parlament nazorati amalga oshirilishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishi;

- parlament nazorati subyektlarining qonuniy talablarini bajarishi, shuningdek ularning faoliyatiga to‘sqinlik qilmasligi;

- parlament nazorati subyektlariga parlament nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan hujjatlar va ma‘lumotlarni taqdim etishi, shuningdek ularning ishonchliligi va xolisligini ta‘minlashi shart.

Davlat organlarining mansabdor shaxslari parlament nazorati subyektlarining parlament nazorati natijalari bo‘yicha qabul qilingan qarorlarini ko‘rib chiqishi va ko‘rib chiqish natijalari hamda ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida ularni belgilangan muddatda xabardor qilishi shart. Davlat organlari mansabdor shaxslarining zimmasida qonunga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisidagi vakolatli vakili parlament nazorati subyektlariga Vazirlar Mahkamasining ko‘maklashishini ta‘minlaydi, xususan:

- Davlat budjeti loyihasining Oliy Majlis palatalari ko‘rib chiqishi uchun taqdim etilishini ta‘minlaydi;

- Davlat budjetining ijrosi to‘g‘risidagi hisobotning Qonunchilik palatasiga taqdim etilishini ta‘minlaydi;

- Vazirlar Mahkamasining o‘tgan yilgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yakunlari va navbatdagi yil uchun nazarda tutilgan asosiy ustuvorliklar to‘g‘risidagi har yilgi ma‘ruzasi Qonunchilik palatasiga taqdim etilishini ta‘minlaydi;

- zarur bo‘lganda Bosh vazirning mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning dolzarb masalalari yuzasidan hisobotlarini Qonunchilik palatasi tomonidan eshitishni tashkil etish choralarini ko‘radi;

- Vazirlar Mahkamasi a‘zolarining o‘z faoliyati masalalari yuzasidan hisobotlarini eshitishni tashkil etish choralarini ko‘radi;

- Vazirlar Mahkamasining a‘zolariga, respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mansabdor shaxslariga yuborilgan parlament so‘roviga, shuningdek Qonunchilik palatasi deputatining yoki Senat a‘zosining so‘roviga o‘z vaqtida javob yuborilishini ta‘minlashga ko‘maklashadi;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining, Oliy Majlis palatalari qarorlarining ijro etilishi holatini, huquqning qo‘llanilish amaliyotini Oliy Majlis palatalarining qo‘mitalari tomonidan o‘rganish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha choralar ko‘radi,

shuningdek respublika ijro etuvchi hokimiyat organlarining, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining, mazkur yo'nalishdagi boshqa tashkilotlarning ishini muvofiqlashtirib boradi;

– respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, boshqa tashkilotlar rahbarlarining ular tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunlariga rioya etilishi, Oliy Majlis palatalarining, ular kengashlarining qarorlari, qo'mitalari va komissiyalarining qarorlari bajarilishi to'g'risidagi axborotini eshitishda ishtirok etadi.

Ta'kidlash joizki, davlat boshqaruvida keng vakolatga ega bo'lgan parlament bo'lsagina mamlakatda to'laqonli demokratiya bo'ladi. Bunda parlament xalq manfaatlaridan kelib chiqqan holda, qonunlarning ijro hokimiyati organlari tomonidan to'liq bajarilishini nazorat qilib borishi mamlakat taraqqiyotida muhim omildir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. "O'zbekiston". Toshkent-2023
2. "Parlament nazorati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. O'RQ-403-son. 11.04.2016
3. Insonhuquqlari.uz